

HINDIY TILIDAGI QISHLOQ XO'JALIGIGA OID TERMINLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Qurbonova O.A.

**Lingvistika 1-kurs hindiy-ingliz guruhi magistranti
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10714633>**

Annotatsiya: Mazkur maqolamiz “Hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid leksemalarning etimologik tahlili” ga bag'ishlanadi. Ishimizning ob'ekti hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid so'zlar bo'lib, tuzilish jihatidan, etimologik jihatdan o'rganib turlarga ajratib chiqib tahlil qilishdan iboratdir. Ya'ni hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid leksemalarning qo'llanilishdagi o'ziga xosliklarini, ularning qarindoshlik jihatdan qaysi tillarga mansubligi jihatdan tahlil qilish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Etimologiya, tatsama, tadbhava, deshi, videshi, tematik tahlil, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik.

So'zlarning “biografiyasi”ni, kelib chiqish tarixini o'rganuvchi soha etimologiya (grekcha etymon – haqiqiy, logos – ta'limot) deyiladi. Tilning leksikasi tildagi barcha so'zlarni o'z ichiga oladi. Tilda mavjud barcha so'zlar uning lug'at sostavini tashkil etadi. Tilda bor bo'lgan so'zlarning hisobi aniq emas. Har bir til o'zining lug'at sostaviga ega bo'lib, yuz minglab so'zlarni o'z ichiga olgan. Hindiy tili lug'at tarkibi kelib chiqishi jihatdan ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Meros sifatida olingan so'zlar;

2. Chet tildan kirib kelgan o'zlashma so'zlar.

Meros sifatida olingan so'zlar, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

1. Hind-oriy;

2. Substial, ya'ni tag qatlamli so'zlar.

Hindiy-oriy so'zlari qadimgi hinduizm obidalarida qayd etilgan so'z va morfemalar bilan taqqoslangan holda topilgan so'zlar va morfemalardir. Substial yoki tag qatlamli so'zlar esa Sanskrit tiliga xos bo'lmagan so'zlar bo'lib, ularni an'anaviy tarzda **देशी**, ya'ni mahalliy so'zlar deb atashadi. Hindiy tili adabiy shakliga mansub hind tub so'zlari tarixiy jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Tatsama – (तत्समा). Sanskrit tilidan bevosita adabiy yo'l orqali o'zlashtirilgan va tub so'z sifatida qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so'zlar bu guruhga kiradi. Bunday so'zlardan foydalanish so'z yasashi ehtiyojlari o'sgan sari turli hind-oriy tillarida har xil miqdorda kuzatiladi. Ularning ba'zilarida esa bunday so'zlar keng ko'lamda ishlatiladi. Shu jarayonda tatsama ya'ni “huddi o'sha sanskritdagidek” so'zlari ko'p hollarda sanskrit tili fonetik va ba'zan grammatik qoidalariga bo'ysunadilar. Masalan, hindiy tilida sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalarida u yaqqol ko'zga tashlanadi¹.

Yuqoridagi nazariyadan kelib chiqqan holda, misollarimizni birma-bir tahlil qilib chiqish jarayonida hindiy tili qishloq xo'jaligiga oid atamalarining tatsama guruhi misollarning 15.7%ini (30tasini) egallashi kuzatildi. Quyida hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid atamalarining tatsama guruhiga doir misollar berilgan:

¹ Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. 1-qism. –T.: ToshDSHI nashriyoti, 2003. –B. 39.

प्राणीशास्त्री	a zoologist	зоолог	zoolog
माली	a gardener	садовник	bog'bon
कृषि विज्ञान	agronomy	агрономия	agronomiya
कुठार	an axe	топор	bolta

2. **Tadbhava – (तद्भावः)**. Bu turdagi so'zlar uzoq davom etgan tarixiy jarayonda prakrit (**प्रकृत**) va apabhhransha (**अपभ्रंषा**) bosqichlaridan o'tib kelingan va tovush o'zgarishlariga duch kelgan so'zlar bo'lib, ular hindiy tili so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Hind-oriy tillari so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. Hind-oriy tillari sanskritdan kelib chiqqan deb tan olinishiga ko'ra, tatbhava "undan kelib chiqqan" degan ma'noni anglatadi². Ushbu qoidaga asoslangan misollarimizni tahlil qilib chiqqanimizda hindiy tilida qishloq xo'jaligiga oid atamalarning tatbhava guruhiga oid misollar biz to'plagan misollarimizning katta qismini egallashi ma'lum bo'ldi. Bu biz to'plagan misollarning 40.5%ini(77tasini) tashkil etdi. Quyida hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid atamalarning tatsama guruhiga doir misollar berilgan:

फावड़ा	a hoe	мотыга	ketmon
खाद	fertilizer	удобрение	og'it
निकाई	weeding	прополка	begona o't
सिंचाई	irrigation	орошение	sug'orish

3. **Deshya – (देश्यः)**. (ya'ni "mahalliy", "yerli"). Bular asosan sanskrit bilan taqqoslanganda bu til tizimiga yot bo'lib, ba'zilar dravid va munda sarchashmalaridan, qolganlari esa kelib chiqishi noma'lum bo'lgan so'zlardir. Miqdoran deshyalar ya'ni mahalliy so'zlar lug'atda benihoya kamchilikni tashkil etadi³. Biz to'plagan misolarda esa deshya guruhiga oid misollar topilmadi.

4. **विदेशी** so'zlar bular chet tillaridan o'zlashgan so'zlardir. Yuqorida aytilganidek, hindiy tili lug'ati chet tillardan kirib kelgan so'zlar vositasida ham boyib kelgan. Buni biz Hindistonda turli xil davrlar mobaynida turli din, madaniyat va tillar hukmron bo'lib kelgani bilan izohlashimiz mumkin. Hindiy tili qishloq xo'jaligiga oid atamalar orasida arab, fors, ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarga guvoh bo'ldik.

Videshi guruhiga mansub qishloq xo'jaligiga oid atamalar orasida ingliz tilidan kirgan atamalar birinchi o'rinni egallab, biz to'plagan misollarning 14.2%ini(27tasini) tashkil etadi. Quyida hindiy tiliga boshqa tillardan kirib kelgan qishloq xo'jaligiga oid misollar berilgan:

Ingliz tilidan kirgan qishloq xo'jaligiga oid atamalar:

फार्म	a farm	ферма	ferma
ट्रेक्टर ड्राइवर	tractor driver	тракторист	traktorch
कंबाइन-मिस्त्री	combine master	комбайнер	kombaynchi
हार्वेस्टर	harvester	жатвенная, уборочная машина	kombayn

Videshi guruhiga mansub qishloq xo'jaligiga oid atamalar orasida fors tilidan kirgan atamalar ikkinchi o'rinni egallab, biz to'plagan misollarning 11.5%ini(22tasini) tashkil etadi. Fors tilidan kirgan qishloq xo'jaligiga oid atamalar:

मुर्गखाना	курытник, птичник	a hen house	tovuqxona
चाहरदीवारी	ограда, забор	a fence	tomorqa

² Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. 1-qism. –T.: ToshDSHI nashriyoti, 2003. –B.39.

³ O'sha asar. –B. 39.

गावखाना коровник a stable og'ilxona

गल्लेबान пастух a herdsman cho'pon

Videshi guruhiga mansub qishloq xo'jaligiga oid atamalar orasida eng so'ngi o'rnlarni arab va portugal tilidan kirgan atamalar egallab, ular biz to'plagan misollarning arab tilidan 1.5%ini(3tasini) hamda portugal tilidan 0.5%(1tasini) tashkil etadi. Arab tilidan kirgan qishloq xo'jaligiga oid atamalar:

अस्तबल a stable конюшня otxona

शलराम a turnip репа sholg'om

मवेशी a cattle скот(рогатый) qoramol

Portugal tilidan kirgan qishloq xo'jaligiga oid atamalar:

संतरा an orange апельсин apelsin

Gibrid so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "chatishma" degan ma'noni anglatadi. Gibrid atamalar ikki yoki undan ortiq tillarning qo'shilishidan hosil bo'lgan yangi atamalardir. Biz to'lagan misollar orasida gibrid so'zlar ham anchagina ya'ni 15.7%ini(30tasini) tashkil qildi.

पम्प(Е) - घर(Н) a pump house водокачка suv nasosi

मधु(С) - मखी(Н) a bee пчела asalari

बारहसिंगा(Н) - पालक(С) a reindeer herder олеговод bug'u boquvchisi

मिट्टी(Н) - विशेषज्ञ(С) a soil scientist почвовед tuproqshunos

Xulosa qilib aytganda, hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid atamalar sanskrit, ingliz, fors-arab va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar orqali ko'payib borgan. Bu holatni Hindistonda turli davrlar mobaynida turli davlatlar hukmronlik qilgani bilan bog'lash to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, hindiy tilidagi qishloq xo'jaligiga oid atamalarning tatbhava guruhiga oid misollar biz to'plagan misollarimizning katta qismini egallashi ma'lum bo'ldi.

References:

1. Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986.
2. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. 1-qism. -Т.: ToshDShI nashriyoti, 2003
3. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А.Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I-II. -М.: Советская Энциклопедия, 1972.
4. Русско - хинди словарь. Под ред. В.М.Бескровного. -М.: ГИС, 1957.